

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

KO‘HISTON OKRUGINING DENDROFLORASI TARKIBI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON MILLIY GERBARIYSI (TASH) VA BOSHQA YIRIK GERBARIY FONDLARIDA SAQLANAYOTGAN NAMUNALARNING TAHLILI

Dadayeva Gulchehra Saydullayevna

O‘zR FA Botanika instituti tayanch doktoranti

(99-079-80-79, e-mail: dadayeva_gulchehra@mail.ru)

Annotatsiya: 1926-2021 yillar davomida TASH, MW, LE va Samarqand davlat universiteti gerbariy fondlarida Ko‘histon botanik-geografik okrugi hududidan 400 dan ziyod gerbariy namunalari yig‘ilgan. 2020-2023 yillar davomida ilmiy tadqiqot izlanishlarda Ko‘histon okrugida muallif tomonidan yig‘ilgan 3900 gerbariy namunalari O‘zR FA Botanika instituti Milliy gerbariy fondiga (TASH) topshirildi.

Kalit so‘z va iboralar: dendrologiya, gerbariy namunasi, o‘simliklar qoplami, botanik tadqiqotlar, geografik hudud, kollektorlar.

Аннотация: В течение 1926-2021 гг. на территории Кухистанского ботанико-географического округа в гербарных фондах TASH, MW, LE и Самаркандского государственного университета собрано более 400 гербарных образцов. В течение 2020-2023 годов 3900 гербарных образцов, собранных автором в Кухистанском округе в ходе научных исследований, были переданы в Национальный гербарный фонд Ботанического института АНРУЗ (TASH).

Ключевые слова и фразы: дендрология, гербарные образцы, растительный покров, ботанические исследования, географический ареал, коллекционеры.

Abstract: During 1926-2021 on the territory of the Kukhistan botanical-geographical district, more than 400 herbarium specimens have been collected in the herbarium funds of TASH, MW, LE and Samarkand State University. During 2020-2023, 3900 herbarium specimens collected by the author in the Kukhistan district during scientific research were transferred to the National Herbarium Fund of the Botanical Institute Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan (TASH).

Key words and phrases: dendrology, herbarium specimens, plant cover, botanical research, geographical area, collectors.

Uzoq o‘tmishdan toki hozirgacha bo‘lgan vaqtda dendrologiyada daraxt va butalarning geografik tarqalishi, morfologiyasi, ayniqsa ichki yoki anatomik tuzilishi, biologik (hayotiy) va ekologik (tashqi muhit bilan munosabati) xususiyatlari hamda tur ichidagi shakllarini turli tumanligini o‘rganishga e‘tibor ortmoqda [1]. Jumladan, dunyo florasining gerbariy namunalari aniqlashda ham o‘z samarasini ko‘rsatdi.

1876-1885 yillarda A.E Regel tomonidan Ko‘histon okrugi tarkibidagi Molguzar tizmasi florasini o‘rganib, bir nechta gerbariy namunalari yig‘di. 1893 yilda V.L.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Komarov tomonidan Molguzar tizmasidagi floraning gerbariy namunalari to'plami yaratildi. 1887-1903 yillar mobaynida V.I. Lipskiy tomonidan O'rta Osiyo bo'yicha tashkil etilgan botanik tadqiqotlarni Turkiston tizmasi hududidagi o'simliklar qoplamiga qaratib, 7 yil oralig'ida 1000 turning 4000 ga yaqin gerbariy namunasini to'pladi va shu bilan birgalikda yirik geografik hudud bo'yicha ma'lumotlarning katta qismini tashkil etdi.

O'rta Osiyo, jumladan O'zbekiston hududidan yig'ilgan katta hajmdagi dastlabki gerbariy yig'malari 1926–1970 yillar oralig'iga to'g'ri keladi. Bu vaqt oralig'ida Ko'histon okrugi tarkibidagi Turkiston va Molguzar tizmalarida bir qator yirik dala ekspeditsiyalari tashkil etildi. Xususan, olib borilgan dala tadqiqotlari qatoriga M.G. Popov, N.V. Androssov, Ye.M. Demurina, Ye.Ye. Korotkova, A.P. Vasilkovskaya, A.I. Granitov, T.D. Dolgix, Ye.A. Galkina, P. Gomolitskiy, E.P. Korovin, V.P. Drobov, I.A. Raykova kabi qator olimlarning ishlarini kiritish mumkin va ular tomonidan yig'ilgan gerbariy namunalari mazkur hududdan to'plangan birlamchi asosiy ma'lumotlar bazasini tashkil etdi.

M.G. Popov va N.V. Androssovlar (1926-1927) tomonidan Turkiston tizmasining Zomin o'rmon xo'jaligi va Guralash qo'riqxonasini o'simliklar qoplamini o'rganish vaqtida Guralash havzasi uchun 387 tur keltirdi. Mazkur mintaqadagi o'simliklar qoplamining tuzilishini va o'simliklar qoplamida yetakchi o'rin tutuvchi dominant turlar tarkibiga katta e'tibor qaratilgan [2]. Ko'histon okrugini dendroflorasining 6 oila 8 turkumga mansub 10 turning 21 gerbariy namunasini yig'di. Jumladan, Ephedraceae - *Ephedra equisetina* Bunge 1 gerbariy namuna (Turkiston tizmasi, Zomin o'rmoni, Guralashsoy, 20.07.1926), Grossulariaceae - *Ribes meyeri* Maxim. 3 (Turkiston tizmasi, Zomin o'rmoni, Guralashsoy, 29.07.1926), Fabaceae - *Colutea* L. - 3 (*Colutea paulsenii* Freyn, Turkiston tizmasi, Zomin o'rmon xo'jaligi, 27.07.1926), Astragalus L. - 2 (*Astragalus bactrianus* Bunge va *Astragalus iskanderi* Lipsky, Turkiston tizmasi, Zomin o'rmoni, Guralashsoy, 27-29.07.1926), Onobrychis Hill - 2 (*Onobrychis echidna* Lipsky, Turkiston tizmasi, Zomin o'rmoni, Guralashsoy, 21-26.07.1926), Rosaceae - *Rosa* L. - 5 (*Rosa beggeriana* Schrenk & Fisch. ex C.A. Mey va *Rosa fedtschenkoana* Regel, Turkiston tizmasi, Zomin o'rmon xo'jaligi, Kulsoy, 24-29.07.1926), Santalaceae - *Arceuthobium* M. Bieb. - 4 (*Arceuthobium oxycedri* (DC.) M. Bieb. Turkiston tizmasi, Zomin o'rmon xo'jaligi, Guralashsoyning chap qirg'og'i, 20-27.07.1926) va Caprifoliaceae - *Lonicera* L. - 1 (*Lonicera nummulariifolia* Jaub. & SnachIII, Turkiston tizmasi, Zomin o'rmon xo'jaligi, Guralashsoy, 20.07.1926) gerbariy namunalarini tergan.

V.P. Drobov (1927) Turkiston tizmasining Guralash va Molguzar tizmasining shimoliy qismidagi dendrofloraning 3 oila, 3 turkumga mansub 3 turning 3 gerbariy namunalarini terdi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Berberidaceae - *Berberis oblonga* C.K. Schneid - 1 gerbariy namuna (Turkiston tizmasi, Guralashsoy, 29.07.1927); Fabaceae - *Astragalus ptercephalus* Bunge 1 (Turkiston tizmasi, Akchi qishlog'ining tog'li qiyaligi, 08.07.1927); Rosaceae - *Sibbaldia tetrandra* Bunge 1 (Turkiston tizmasi, Oqsuvsoy tepaligi, 30.07.1927) gerbariy namunalarini aniqlagan.

B.Zakrjevskiy (1934-1935) Pomiroloyning Turkiston tizmasidagi dendroflorani 5 oila 7 turkumga mansub 10 turni 37 gerbariy namunalarini tergan. Ephedraceae - *Ephedra* L. - 2 gerbariy namunasi (Turkiston tizmasi, Guralashsoyning tepaligi, 29.06.1934), Grossulariaceae - *Ribes* L. - 3 (Turkiston tizmasi, Zominsu havzasi, 27.06.1935), Fabaceae - *Colutea* L. 4 (Turkiston tizmasi, Guralash havzasi, 14.07.1935), *Astragalus* L. - 13 (Turkiston tizmasi, Zominsu havzasi, 06.07.1934), *Onobrychis* Hill - 7 (*Onobrychis echidna* Lipsky, Turkiston tizmasi, Guralashsoy havzasi, 13.07.1935), Rosaceae - *Spiraea hypericifolia* L. turining 1 (Turkiston tizmasi, Zominsu havzasi, Kulsoy, 21.06.1935), Caprifoliaceae - *Lonicera* L. - 7 (Turkiston tizmasi, Guralashsoy havzasi, Kulsoy, 13-21.06.1935) gerbariy namunalarini yig'ib o'rgangan.

Izlanishlar qatorida Ko'histon okrugi tarkibidagi Turkiston tizmasi va uning tarmoqlaridagi (Molguzar va Nurota tog'lari) florani o'rgangan Ye.M. Demurina (1937-1972) bir necha davomli dala tadqiqotlari olib borgan va asosan o'simliklar qoplaminin tarkibi va tuzilishini, xususan Turon qurg'oqchil har-xil o'tli dasht tipini o'rgandi. Uning ko'p yillik tadqiqotlarining eng asosiy natijalaridan biri 1975 yilda chop etilgan “Растительность западной части Туркестанского хребта и его отрогов” nomli monografiyasida keltirildi. Ushbu asarda Turkiston tog' tizmasining g'arbiy qismi va uning tarmoqlaridagi o'simlik jamoalari tarkibida o'suvchi 67 oila va 413 turkumga mansub 1139 turdagi yuksak o'simliklar ro'yxati shakllantirildi va mazkur hududdan 2000 ortiq gerbariy namunalarini yig'ib Turkiston va Molguzar tizmalarining o'simliklar qoplaminin xaritasini tuzgan. Shundan Ko'histon okrugi dendroflorasiga oid 6 oila 10 turkumga mansub 15 turning 43 gerbariy namunalari yig'ildi. Bundan tashqari tadqiqot hududida florada tarqalgan dendrofloraning gerbariy namunalarini o'rganish natijasida TASH, MW, LE, Samarqand davlat universiteti gerbariysi asosiy kollektorlari dendrofloraning turkum va turlarini fanga kiritgan buyuk olimlarimiz Ye. Pikok (1928-1929) 3 tur/8 gerbariy namuna; O.K. Kasimenko (1931-1932) 5/10; B. Zakrjevskiy, P. Gomolitskiy, G. Protopopov (1934-1935) 20/45; Ye.Ye.Korotkova, A.P. Vasilkovskaya (1936-1939) 22/50; Ye.A. Galkina, A.D. Li, O.N. Radkevich (1946-1948) 10/32; E.K. Obonitskaya, M.M. Arifxanova (1954-1956) 12/35; Yu.D. Soskov, P.Gomolitskiy, V.Drobov, S.S. Saxobiddinov (1957-1959) 5/10; A.D. Pyataeva (1959-1961) 6/8; V.U. Makarchuk (1965-1966) 10/32; Nabiyev M.M., Pratorov U.P., Shermatov G.M., Kazakbayev (1972-1975) 12/34; M.M. Nabiyev, A.D. Li, T.I. Tsukervanik (1978-1980) 20/45; P.X. Xalkuziyev, G.M. Shermatov,

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

A.M. Maxmedov, G.Gaffarov (1984-1986) 10/24; A.X. Gazibayev, K.Xodjimatrov (1991-1993) 22/35; U.P. Pratorov (2005-2007) 5/10, L.A. Botirova, M.Sulaymonov (2006-2010) 10/25; N.Yu. Beshko, D.E. Azimova (2011-2021) 11/34; K.Sh. Tojibayev (2012-2014) 15/30; Jeong Ill Jeon, Jae-Sun Yi, N.Yu. Beshko (2019-2021) 5/8 va I.G, Levichev, R.V. Kamelin, F.O. Xasanovlarning hissalariga katta [4].

Xulosa qilib aytganda olib borgan tadqiqot ishlari o‘simliklar qoplaminin tuzilishiga bag‘ishlanganligi uchun floraning to‘la taksonomik tarkibi va tizmalar bo‘yicha alohida o‘simliklar ro‘yxati keltirilmagan. 1926-2021 yillar davomida TASH, MW, LE va Samarqand davlat universiteti gerbariy fondlarida mazkur hududdan 400 dan ziyod gerbariy namunalari yig‘ilgan.

2020-2023 yillar davomida ilmiy tadqiqot izlanishlarda muallif tomonidan yig‘ilgan 3900 gerbariy namunalari O‘zR FA Botanika instituti Milliy gerbariy fondiga (TASH) topshirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Сахарова С.Г., Семенова Л.А. Дендрология. Интродукция древесных растений в Ботаническом саду СПбГЛТУ с момента его основания до наших дней. Ч. 1-3. СПб., 2021.
2. Қайимов А., Бердиев Э.Т. Дендрология. – Ташкент, 2012. 161-164 б.
3. Демурина Е.М. Растительность западной части Туркестанского хребта и его отрогов. – Ташкент: Фан, 1975. – 189 с.
4. Тожибаев К.Ш., Бешко Н.Ю., Эсанкулов А.С., Батошов А.Р., Азимова Д.Э. Кадастр флоры Узбекистана: Джизакская область. Изд. «ФАН». Ташкент – 2021. – 368 с.